GCCR
Global Conference on Contemporary Research

GLOBAL CONFERENCE ON CONTEMPORARY RESEARCH



CONFERENCE THEME:

SUSTAINABLE FUTURES:
INNOVATION, DIGITAL TRANSFORMATION AND GLOBAL COLLABORATION THROUGH CONTEMPORARY RESEARCH

INNOVATION | DIGITAL TRANSFORMATION | GLOBAL COLLABORATION | SUSTAINABLE FUTURES

JOURNAL

PEER-REVIEWED PROCEEDINGS

OCTOBER 2026

TORONTO, CANADA

gccr.academy

TECHNOLOGIZATION OF THE PROCESS OF PREPARING FUTURE OFFICERS FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY

Pirnazarov Roman Aralovich

HX va MU kafedra katta o'qituvchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.23598047

Abstract. The article highlights the importance of technologizing the process of preparing future officers for innovative professional activities. The article analyzes the role of future officers in developing the process of preparing for innovative professional activities.

Keywords: professional innovative activity, development, forms, educational influence, didactics, military pedagogy.

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak ofitserlarning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini texnologiyalashtirish ahamiyati yoritilgan. Maqola bo'lajak ofitserlarning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy innovatsion faoliyati, rivojlantirish, shakllar, tarbiyaviy ta'sir, didaktika, harbiy pedagogika.

Аннотация. В статье освещается важность технологизации процесса подготовки будущих офицеров к инновационной профессиональной деятельности. В статье анализируется роль будущих офицеров в развитии процесса подготовки к инновационной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: профессиональная инновационная деятельность, развитие, формы, воспитательное воздействие, дидактика, военная педагогика.

Kirish. Didaktik o'qitish vositalarining evolyutsiyasi ta'lim metodologiyasini rivojlantirishda asos bo'ldi. Texnologiyaning jadal integratsiyalashuvi bilan ushbu zamonaviy didaktik vositalarining samaradorligini oshiradigan pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish ahamiyatini yanada oshirdi.

Asosiy qism. Didaktika (yun. didaktikos - o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi) - pedagogikaning tarmog'i. Didaktika ta'lim prinsiplari, bilim, ko'nikma va malakalarni

egallash qonuniyatlarini ochib beradi, ta'lim (ma'lumot) metodlari, usullari, vositalari va ta'limning tashkiliy shakllarini, shuningdek, uni ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy ta'sirini ko'rib chiqadi. Harbiy xizmatchilar ta'limi va harbiy jamoani tayyorlash jarayoni o'zining harbiy didaktika shug'ullanadigan qonuniyatlari va o'ziga xosliklariga ega. Harbiy didaktikada harbiy pedagogikaning bir qismi sifatida harbiy xizmatchilar ta'limi mohiyati, mazmuni, o'ziga xosliklari, vazifalari, qonuniyatlari, prinsiplari, metodlari, ta'lim shakllari ochib beriladi.

Didaktik qobiliyat – o'quv materialini tushuntira olish, tinglovchi ongiga qiziqarli, aniq tarzda yetkaza bilish, ilmiy izlanuvchanlik, fan va texnika yangiliklaridan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olish qobiliyati. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan pedagog o'z faoliyatiga ijodiy yondashadi, tinglovchida aqliy faollikni uyg'ota oladi.

Harbiy didaktika - harbiy pedagogikaning harbiy kadrlar tayyorlash va harbiy jamoalarni tayyorlash jarayonini o'rganadigan bo'limi. Harbiy didaktika harbiy xizmatchilarni tayyorlashni, bir tomondan, o'ziga xos pedagogik jarayon deb hisoblaydi, uning asosiy vazifasi bo'linmalarning yuqori doimiy jangovar tayyorgarligini, ularning xalq oldidagi konstitutsiyaviy burchini bajarish qobiliyatini ta'minlashdir. Vatanni har qanday tajovuzkorning tajovuzlaridan himoya qilish. Boshqa tomondan, harbiy xizmatchilarni tayyorlash deganda ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradigan murakkab ijtimoiy pedagogik jarayon tushuniladi.

Kursantlar ta'limi jarayonining qonuniyatlarini tadqiq etar ekan, didaktika uning prinsiplari, shakl va metodlari, moddiy-texnikaviy vositalari va shu kabilarni belgilaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni hal etish davomida harbiy didaktika kursantlar ta'limi jarayonining metodik tizimida o'z aksini topuvchi nazariy modelini tuzadi. Shaxsiy tarkib ta'limining aniq metodikasi sifatida harbiy didaktika unga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Ofitser, kursant va kursantlar ta'limining harbiy didaktikada yoritiladigan umumiy qonuniyatlari turli o'quv fanlarini o'rganish jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslikni

xususiy metodikalar o‘rganadi. Masalan: ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik, taktika, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik metodikasi va boshqalar.

Kursantlar ta’limining umumiy nazariyasi sifatida harbiy didaktika metodikalar o‘rtasidagi aloqadorlikni va turli pedagogik vazifalarni hal qilishda yagona yondashuvni ta’minlaydi. Harbiy didaktika xususiy metodikalarga tayanadi, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan boyib boradi va shu bilan birga ta’lim jarayonining mohiyatiga chuqur kirib boradi. Harbiy didaktika kursantlar ta’limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o‘rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi: ta’limiy (kursantlarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish); tarbiyaviy (kursantlarda o‘z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiyalash); rivojlantiruvchi (kursant shaxsini komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish) va ruhiy tayyorlash (kursantlarda xizmat vazifalarini bajarishga va jangovar vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Bu vazifalarni bajarar ekan, komandir (boshliq) avvalambor, bo‘ysunuvchilarning o‘quv faoliyatini tashkilotchisi sifatida qatnashadi. Uning ta’siri ostida kursantlar faol bilim olishga kirishadilar: tinglaydilar, kuzatadilar, zarur harakatlarni bajaradilar, o‘qiydilar, yozadilar, oldilariga qo‘yilgan masalalarni muhokama qiladilar, o‘z mehnatlarini tahlil qiladilar va komandir (boshliq) ko‘magida kerakli tuzatishlar kiritadilar. Bu faoliyat jarayonida ta’lim oluvchilar tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma’naviy-axloqiy va jangovar xislatlari, hissiy- irodaviy turg‘unligi, jangovar vaziyatlarda xarakat qilish uchun ruxiy tayyorgarligi shakllanadi.

Globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi – geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan

yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o‘zaro kurash kuchayganligi bilan tavsiflanadi.

Bu holatlar xavotirli tendensiyalar mavjud tanglik o‘choqlarining global miqyosda keskinlashuviga hamda yangilari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida jahondagi holat tobora murakkablashmoqda, taxmin qilinishi qiyin bo‘lgan xususiyat kasb etmoqda.

O‘z navbatida Markaziy Osiyodagi vaziyatga terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikning saqlanib turgan xavf-xatarlari va tahdidlari salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Afg‘onistondagi noqonuniy qurolli tuzilmalar faoliyati mintaqa xavfsizligiga alohida xavf solmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan o‘z huquqini amalga oshirar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini:

harbiy tajovuzni daf etish;

harbiy sohadagi milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi ekstremizm, terrorizm va boshqa g‘ayriqonuniy ko‘rinishlarga qarshi kurashish;

favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish;

xavfsizlik va huquq-tartibotni ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashish maqsadida o‘zining yuksak bilim va mahoratiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Qurolli Kuchlar hayoti va faoliyatida, harbiy kadrlarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini o‘rganish hamda harbiy xizmat faoliyatiga harbiy xizmatchilarni tayyorlashda pedagogika fani alohida o‘rin tutadi.

Armiya o‘ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo‘lganidan beri shaxsiy tarkibni o‘qitish va tarbiyalash harbiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Ushbu tarkibiy qism o‘z mazmuni bo‘yicha amaliy harbiy pedagogika hisoblanib, harbiy xizmatchilarni har tomonlama jangovar harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga zaruriy, majburiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dastlab harbiy pedagogika qo‘mondonlar va bo‘ysunuvchilarning amaliy faoliyati sifatida paydo bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan

jangchilarni o‘qitish va tarbiyalash haqidagi bilimlar to‘planib, ular avloddan-avlodga afsonalar, rivoyatlar, maqollar, matallar tarzida yetkazilgan. Harbiy ishlarning murakkabligi, ayniqsa, davlatlarning shakllanishi, nisbatan ko‘p sonli doimiy qo‘shinlar yaratish davrida harbiy pedagogik fikr yanada rivojlanib bordi bular esa tegishli tajriba ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar, nizomlar, buyruqlar va boshqa yozma manbalarda o‘z aksini topdi.

Harbiy pedagogika va uning rivojlanish jarayoni mazmuniga mamlakatning tarixiy rivojlanish shart sharoitlari, ko‘p vaqt davomida u yoki bu mamlakat armiyasining hal qiluvchi vazifalari, shaxsiy tarkibning milliy xususiyatlari va boshqalar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Eng qadimgi harbiy tarbiyalash haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san’ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lishning namunasi sifatida e’tirof etilgan ma’naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” kabi asarlari, shuningdek, Urxun- Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o‘rganish insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘ynaganligidan darak beradi.

Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo‘lgan ta’limiy-axloqiy asarlarda ham nazariy, ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo‘lgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan boshlab, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” va boshqa juda ko‘p didaktik asarlarning har birida inson kamoloti muammosi yoritilgan. Tarixga nazar tashlasak, komil inson xarakteri va xulq-atvori qanday degan masala bilan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al- Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Imoi al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Amiro Temur, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar o‘z asarlarida Komil inson xarakteri, ezgu va odil xislatlarni uch xislatga jam qilganlar: “ Saxo- bor narsani hech kimdan

qizg‘anmaslik; Safo – qalbni kibru – havo, gina- qudrat, qasd – g‘azabdan poklash; Vafo – hamma vaqt halq xizmatida bo‘lish”.

Shunday qilib, Saxovatlilik faqat moddiy yordam bilan emas, balki o‘zgacha ilm ato etish bilan ham bo‘ladi. Safolik (poklik) esa birovning qalbini nurga to‘ldirish, Vafolik o‘zganing baxtidan xushnud bo‘lishidir.

Demak, Komil inson o‘z xarakteri, axloqi va odobi bilan o‘zgani tarbiyalaydi, o‘ziga baxt ato etadi. Uning xarakteri, axloqi jamiyatda tipikdir, xarakter tipiklashmasa komillik bo‘lmaydi. Zero, Komil insonda ezgu va odil xarakterni shakllantirish uchun qalbni tarbiyalamoq lozim. Mutafakkirlarning fikricha, kishilarda besh xil qalb bor: “O‘lik qalb- hech narsaga intilmaydigan qalb; xasta qalb - yangilikka havasi bor, lekin intilmaydigan qalb; xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin yordamga muhtoj qalb; g‘ofil qalb – hikmat (onglilik) nuridan bebahra qalb; uyg‘oq qalb – nuri bor, biroq tarbiyaga muhtoj qalb; tirik qalb – o‘z baxtini topgan va o‘zgaga baxt beruvchi qalb”. Komil inson ana shunday tirik qalbga ega bo‘lish bilan birga ulug‘ xarakterga erishadi. Demak, biz milliy istiqlol g‘oyasi va milliy mafkurani harbiy ta’lim tizimi jarayonida qo‘llashda bo‘lajak harbiy xizmatchilarning qalbi, ongi va shuuridagi tuyg‘ularini shakllantirishga, qalbi va ongini yot unsurlardan asrashga, nihoyat undagi ezgu tuyg‘ularni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Xulosa, tafakur yurita olish qobiliyatiga ega bo‘lgan inson kamolotini ta’minlash jarayoni hamda jamityaning ijtimoiy taraqqiyoti o‘zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga inson tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarida shakllanib borganligidan dalolat beradi.

Harbiy jarayon fundamental nazariy muammolarni hal qilish bilan birga kundalik amaliyotda ilg‘or harbiy- pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va joriy qilishga o‘ziga xos e’tiborni qaratish zarurligini keltirib chiqaradi. Shuningdek, komandir, jamoat tashkilotlari bo‘linmalari va qismlari, shaxsiy trarkibning jangovor tayyorgarligi, harbiy mahorati, intizomi va uyushqoqligining yuqori darajasi uchun keskin tayyorgarligida faol yordam beradigan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash 6-noyabr 2020-yildagi, 2022-yil 17-martda qabul qilingan PF-89-son farmoni.

2. Abdukarimov X. «Профессионалное воспитание личности учителя в процесса непрерывного педагогического образования» Автореф.дисс. . докт. пед.наук.–Т., 1997. –46 с.

3. Abdullaeva B.S.Fanlararo aloqadorlikning metodologik didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishidagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida) 13.00.01. – Ped.fan.dok. dis...avtoref. T.: - 2006. – 49 b..

4. Адолф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя: монография. Красноярск, 1998. 310 с.

5. Арипджанова А.Р. Развития креативного потенсиала педагогов высших образовательных учреждений в условиях информатизации образования. Пед. фан.док. (PhD) дис... – Тошкент: 2017.– 179б.;